

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN GERONTOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida gerontologiyada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari:

Gerontologiyada hamshiralik ishi

1. Gerontologiya va geriatriya haqida tushuncha.
2. Keksalik davrning o‘ziga xos ijtimoiy, ruhiy va ijtimoiy xususiyatlari.
3. Gerontofarmakologiyaning yosh bilan bog‘liq xususiyatlari, tamoyillari va qoidalari.
4. Qariyalarda kasalliklarni kechishi.
5. Uyda parvarishga muhtoj keksalarda hamshiralik parvarishi.
6. Hayotdan ko‘z yumayotgan qariyalarni parvarishlash

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Gerontologiya va geriatriya haqida tushuncha. Gerontofarmakologiyaning asosiy prinsiplari	Gerontologiya va geriatriya haqida, inson hayoti va qarilikning ahamiyatini, qarilik jarayonining kechishi, qarish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni, qariyalarda hamshiralik ishi, qariyalarda hamshiralik ishida talab etiladigan etika va deontologiyani, keksalik davrining o'ziga xos jismoniy, ruhiy va ijtimoiy, patologiyasining xususiyatlarini biladi. Gerontofarmakologiyaning yosh bilan bog'liq xususiyatlari, dori vositalarining qari va keksa yoshdagi bemorlarga nojo'ya ta'sirini, gerontologik bemorlarni davolashning o'ziga xosligini, gerontologik bemorlarini momolarini va ehtiyojini aniqlaydi. Hamshiralik jarayonini tashkillashtirishni, hamshiralik tashxisi, reja, baholashni, dori moddalarini tarqatishni, dorilar bilan davolanayotgan qari bemorlarda hamshiralik parvarishini, dorilarning samarasi va nojo'ya ta'sirini nazorat qiladi, keksa va qariyalarga buyurilgan dori moddalarni vaqtida qabul qilishini o'rgatish va nazorat qilishni biladi.	15 %	6 ta
2	Qariyalar salomatligining xususiyatlari	Qariyalar salomatligining xususiyatlari va ularni qo'llab-quvvatlashda hamshiralik ishini, sog'liqni saqlash uchun kundalik hayotida qulay shart-sharoitlarni yaratishni, tibbiy, psixologik, ijtimoiy va mehnat reabilitatsiyasini, qariyalar salomatligini nazorat qilishni, tibbiy ko'riklardan muntazam o'tib turishni biladi. Sog'lom qarish va uning negizlarini, qariyalarga sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni, qariyalarni o'zini-o'zi parvarish qilishini yo'lga qo'yishni, yolg'iz qariyalar parvarishini, qariyalarda hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlashni biladi. Qariyalarning kundalik hayotidagi (harakatlaridagi) qiyinchiliklarni o'zida his qilishni, aniqlash va ularga hamshiralik yordamini ko'rsatishni, qariyalarning tayanch-harakat tizimi va ko'z, quloq a'zolarida yoshi bilan bog'liq o'zgarishlarni, yurish	17 %	7 ta

		xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning kundalik hayotidagi qiyinchiliklarni aniqlash va yordam ko'rsata olishni, keksa va qari yoshdagi bemorlar reabilitatsiyasi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
3	Tekshiruvdan o'tayotgan va jarrohlik yo'li bilan davolanayotgan keksa bemorlarda hamshiralik ishi	Tekshiruvdan o'tayotgan keksa va qariyalarda hamshiralik ishining xususiyatlari, tekshiruvning mohiyatini bemorga tushunarli so'zlar bilan tushuntirishni, qariyalarga tekshiruvning mohiyati va tekshiruv muolajalari haqida tushuntirish ishlari olib borishni, bemorning tekshiruv bilan bog'liq bezovtaligini kamaytirishni, jarrohlik yo'li bilan davolanayotgan keksa bemorlarda hamshiralik parvarishini, jarrohlik amaliyotidan (operatsiya) oldingi parvarishni biladi. Operatsiyadan oldin tushuntirish ishlarini olib boradi, qari bemorlarni tekshiruvdan o'tkazayotganda uni tushunish darajasi va ruhiy holatini aniqlash, xavfsiz va ishonarli tekshiruv o'tkazilishini ta'minlashni, keksa va qariyalarni tekshiruv vaqtida va tekshiruvdan keyin qariyalarni kuzatuv va yordam ko'rsatishni, endoskopik tekshiruvga tayyorlashda yordam berish ko'nikmalarini, asoratlarni oldini olishni, qari bemorlar qarorini qo'llab quvvatlashni biladi. Bemorlarni operatsiyadan oldin jismoniy va ruhiy tayyorlashni, jarrohlik amaliyotidan keyingi parvarish: kuzatish va og'riqlarni kamaytirish, asoratlar va ularda parvarish qilishni, o'rindan tezroq turishga qaratilgan parvarishni, bemorni transportirovka qilishni, o'rin-joy tayyorlashni, operatsiyadan keyingi davrda pnevmoniyaning oldini olish uchun to'shakdan erta turishni, nafas gimnastikasi, namlangan kislorod bilan nafas olish, diafragma pasayishi uchun tana holati (yarim-Fauler), ingalyatsiya, gorchichniklarni qo'llash, jarrohlik amaliyotidan keyingi mashqlarni, o'pkaga qaratilgan fizioterapevtik muolajalarini, o'rindan erta turishni, yotoq	23 %	9 ta

		yaralarni oldini olishni, jarrohlik amaliyotidan so'ng gigiyenik muolajalarni, kolostoma va kateterli bemorlarni parvarish qilishni, jarrohlik yo'li bilan davolanayotgan keksa bemorlarda hamshiralik jarayonini olib borishni, qariyalarda reabilitatsiya usullari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
4	Qariyalarda kasalliklarni kechishining o'ziga xos xususiyatlari	Keksa va qariyalarda kasalliklar kechishini o'ziga xosligini, ma'lumot to'plash qoidalari va bemor holatini baholashni, kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxisi, davosi va hamshiralik parvarishining o'ziga xosligini, kasalliklarni qariyalarda namoyon bo'lishini, shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda bemorga shifokorgacha yordam ko'rsatishni, hamshiralik jarayonini tashkillashtirishni bilishi.	38 %	15 ta
5	Uyda parvarishga muhtoj keksalarda hamshiralik parvarishi. Hayotdan ko'z yumayotgan qariyalarni parvarishlash	Uyda parvarishga muhtojlik sabablarini, o'ringa mixlanib qolishni asoratlari va ularni oldini olishni, uyda qariyalarni parvarishining ahamiyatini, keksalar va oila a'zolaridan hamshiralik parvarishining xususiyatlarini, nogiron va o'zgalar parvarishiga muhtoj qariyalar parvarishlash va oila a'zolarini o'qitish ishlarini, uyda parvarishga muhtoj keksalarda harakatlanishi va ovqatlanishiga yordam berishni, og'iz bo'shlig'ini parvarish qilishni, tana vaziyati o'zgartirilganda va harakatlanishda yordam ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Qaram bo'lib qolgan keksa bemorlarda organizm tozaligini saqlash va fiziologik chiqaruvlar vaqtida yordam ko'rsatadi, ichki kiyimlarni almashtirishni, tana tozaligini ta'minlashda yordam ko'rsatishni, vanna qabul qilishni, nam artinishda yordam ko'rsatishni, qaram bo'lib qolgan keksa bemorlarni parvarish qiluvchi shaxslarga ko'rsatmalar berish va o'qitishni biladi. Hayotdan ko'z yumayotgan qariyalar va ularning oila a'zolarini hamshiralik parvarishining xususiyatlarini, hayotdan ko'z yumayotgan qariyalarni azoblarini yengillashtirishni, hayotdan ko'z yumayotgan qariyalar uchun qulay sharoitni yaratishni,	7 %	3 ta

		qariya va uning oilasining qarorini hurmat qilishni, qariya va uning oilasiga kerakli parvarishni ta'minlashni, yaqinlashib kelayotgan o'lim belgilari va o'limni tasdiqlashni, murdani diniy urf odatlarga ko'ra saranjomlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	11
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	72
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	17

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Razikova I. S., Alikulova D. Ya. Gerontologiyada hamshiralik ishi, Darslik (o'zbek tilida). Toshkent 2018 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 2015-yil 25 martdagi 123-sonli "OIV infeksiyasini oldini olish chora tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida" gi buyrug'i
3. Razikova I. S., Alikulova D. Ya., Xaydarova Z. T., O'talov Q. Q. "Gerontologiyada hamshiralik ishi" darslik. Toshkent 2013 y.
4. Rustamova M., Xo'jamberdiev M. Geriatriya, Darslik. Toshkent 2012 y.
5. Под редакцией Г.П. Котелникова Сестринское дело профессиональные дисциплины, Учебник. Ростов – на –Дону. "Феникс" 2007 г
6. Gadoev A.G. Ichki kasalliklar propedevtikasi, Darslik. Toshkent 2014 y.
7. Гадаев А.Г. Пропедевтика внутренних болезней. Учебник. (на русском языке). Тошкент – 2019
8. Филиппова А.И. Сестринское дело в терапии. Учебное пособие. Медицина. 2000 г.